



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdoni Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	

Talabalarning darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish	196
Dusanov Shuxrat Abdiraakovich	
Kutubxona muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari	201
Qosimova Xolida Nabiyevna	
Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari	205
Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich	



JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich
Termiz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari nazariy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonida jismoniy tarbiya o'qituvchisidan nafaqat harakat texnikasini bilish, balki darsni ilmiy-metodik loyihalash, o'quvchilar faoliyatini boshqarish, individual yondashuvni qo'llash, xavfsizlikni ta'minlash, baholash va reflektiv tahlil yuritish kabi ko'p qirrali kasbiy sifatlar talab etilishi bilan izohlanadi. Maqolada kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, reflektiv pedagogika, interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan. Ishda nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash, pedagogik umumlashtirish, modellash va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy-pedagogik kompetensiya, dars samaradorligi, metodik tayyorgarlik, refleksiya, interfaol metod, pedagogik mexanizm, baholash, xavfsizlik madaniyati.

Abstract: This article presents a theoretical and pedagogical analysis of the mechanisms for improving the professional and pedagogical competence of future physical education teachers in the process of physical education lessons. The relevance of the study is determined by the fact that modern educational practice requires a future physical education teacher not only to master the technique of physical exercises, but also to design lessons, manage students' activities, ensure safety, apply an individual approach, conduct assessment, and perform reflective analysis. The article reveals mechanisms for developing professional and pedagogical competence based on a competency-based approach, activity-oriented learning, reflective pedagogy, interactive methods, and digital tools.

Key words: physical education, future teacher, professional and pedagogical competence, lesson effectiveness, methodological training, reflection, interactive method, pedagogical mechanism, assessment, safety culture.

Аннотация: В данной статье теоретико-педагогически анализируются механизмы совершенствования профессионально-педагогической компетентности будущих учителей физической культуры в процессе уроков физического воспитания. Актуальность исследования обусловлена тем, что современная образовательная практика требует от будущего учителя физической культуры не только владения техникой физических упражнений, но и умения проектировать урок, управлять деятельностью учащихся, обеспечивать безопасность, применять индивидуальный подход, осуществлять оценивание и рефлексивный анализ. В статье раскрываются механизмы развития профессионально-педагогической компетентности на основе компетентностного подхода, деятельностного обучения, рефлексивной педагогики, интерактивных методов и цифровых средств.

Ключевые слова: физическая культура, будущий учитель, профессионально-педагогическая компетентность, эффективность урока, методическая подготовка, рефлексия, интерактивный метод, педагогический механизм, оценивание, культура безопасности.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy faoliyati pedagogik, metodik, psixologik, sog'lomlashtiruvchi va tashkiliy vazifalarni birlashtirgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi maktab jismoniy tarbiya darsi faqat sport mashqlarini o'rgatish yoki normativ topshiriqlarini bajarish bilan cheklanmaydi. U o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, irodaviy fazilatlarni tarbiyalash, jamoada harakat qilish, o'z imkoniyatini baholash va xavfsiz harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [1; 2].

Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish oliy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki kelgusidagi dars samaradorligi bo'lajak mutaxassisning nazariy bilimlari, metodik tayyorgarligi, harakatlarni o'rgatish texnologiyasini bilishi, pedagogik muloqot madaniyati, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi hamda dars jarayonini xavfsiz, maqsadli va natijador tashkil eta olishiga bevosita bog'liq.

Jismoniy tarbiya darsining o'ziga xosligi shundaki, unda ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtiruvchi vazifalar bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. O'qituvchi mashg'ulot mazmunini rejalashtiradi, mashqlarni ko'rsatadi, o'quvchilar harakatini kuzatadi, xatolarni tuzatadi, yuklamani me'yoriylaydi, xavfsizlikka rioya qilinishini nazorat qiladi va dars yakunida natijalarni baholaydi. Bunday sharoitda kasbiy-pedagogik kompetensiya alohida bilimlar yig'indisi emas, balki real pedagogik vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilishga imkon beruvchi integrativ sifat sifatida qaraladi [3; 4].

Mavzuning ilmiy muammosi shundaki, ayrim hollarda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda sport texnikasini egallash va mashqlarni bajarish malakasi ustuvor qo'yiladi, darsni pedagogik loyihalash, refleksiv tahlil, differensial yondashuv, kommunikativ boshqaruv va baholash madaniyati esa yetarli darajada tizimlashtirilmaydi. Natijada talaba amaliy harakatlarni yaxshi bajargani holda, ularni o'quvchi yoshiga mos tushuntirish, guruh faoliyatini boshqarish yoki dars samaradorligini tahlil qilishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlarini nazariy-pedagogik jihatdan asoslashdan iborat. Shu maqsadga muvofiq, maqolada kompetensiya tushunchasining mazmuni, jismoniy tarbiya o'qituvchisiga xos kasbiy-pedagogik sifatlar, metodik tayyorgarlikni rivojlantirish omillari, amaliy mashg'ulotlar, refleksiya va raqamli vositalarning samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik adabiyotlarda kasbiy kompetensiya mutaxassisning bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat, tajriba va shaxsiy sifatlarini kasbiy vaziyatda samarali qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatida bu tushuncha kengroq mazmun kasb etadi, chunki dars jarayonida o'qituvchi bir vaqtning o'zida metodist, tashkilotchi, tarbiyachi, motivator, kuzatuvchi va xavfsizlikni ta'minlovchi shaxs sifatida harakat qiladi [5; 6].

Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, bo'lajak o'qituvchi tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi subyekt emas, balki kasbiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, pedagogik vaziyatni baholay oladigan va samarali qaror qabul qila oladigan faol shaxs sifatida shakllanishi lozim. Jismoniy tarbiya darslari sharoitida bu yondashuv o'quvchilarning harakat faolligini boshqarish, mashq yuklamasini me'yoriylash, dars zichligini ta'minlash, topshiriqlarni o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos tanlash bilan bevosita bog'liq.

Faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi bo'lajak o'qituvchini real kasbiy harakatlarga yaqinlashtirishni talab qiladi. Bunda amaliy mashg'ulotlar, mikroo'qitish, dars fragmentlarini loyihalash, pedagogik kuzatuv, metodik tahlil va o'zaro baholash muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya yo'nalishida nazariy bilim amaliy faoliyat bilan mustahkamlanmasa, bo'lajak o'qituvchining dars jarayonidagi kasbiy ishonchi yetarli darajada shakllanmaydi [7; 8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Refleksiv yondashuv mazkur masalada alohida ahamiyatga ega. Chunki bo'lajak o'qituvchi har bir mashg'ulotdan keyin o'zining metodik qarorlari, tushuntirish uslubi, ko'rsatma berish aniqligi, o'quvchilar bilan muloqoti va dars natijasini tahlil qila olishi kerak. Refleksiya kasbiy o'sishning ichki mexanizmi bo'lib, u o'qituvchining o'z faoliyatiga tanqidiy, tahliliy va ijodiy munosabatini shakllantiradi.

Maqolada nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash, ilmiy manbalarni interpretatsion sharhlash, pedagogik kategoriyalarni tizimlashtirish, modellashtirish va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tahlil jarayonida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik, amaliy, kommunikativ, refleksiv va texnologik mexanizmlar o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi.



1-jadval: Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari

Mexanizm	Pedagogik mazmuni	Amaliy qo'llanish shakli	Kutiladigan natija
Metodik tayyorgarlik	Dars maqsadi, vazifasi, mashqlar ketma-ketligi, yuklama va baholash mezonlarini loyihalash.	Dars ishlanmasi, mashqlar majmuasi, dars fragmenti va metodik xarita tuzish.	Darsni rejalashtirish sifati va mashg'ulot zichligi oshadi.
Amaliy-pedagogik ko'nikma	Mashqni ko'rsatish, tushuntirish, xatoni tuzatish, guruhni boshqarish va xavfsizlikni nazorat qilish.	Mikroo'qitish, amaliy dars, pedagogik amaliyot va o'zaro kuzatuv.	O'quvchilar faoliyatini samarali tashkil etish malakasi rivojlanadi.
Kommunikativ kompetensiya	Aniq ko'rsatma berish, rag'batlantirish, pedagogik muloqot va ijobiy psixologik muhit yaratish.	Buyruq, signal, qisqa izoh, savol-javob, motivatsion fikr va guruh bilan ishlash.	Intizom, faollik, ishonch va darsga qiziqish kuchayadi.
Individual yondashuv	O'quvchilarning yosh, jins, sog'liq holati, jismoniy tayyorgarligi va qiziqishlarini hisobga olish.	Differensial topshiriq, mos yuklama, guruhlash va yengillashtirilgan mashqlar.	Har bir o'quvchi imkoniyatiga mos ta'lim muhiti yaratiladi.
Refleksiv tahlil	Dars natijasi, metodik qarorlar, xatolar va takomillashtirish yo'nalishlarini baholash.	Refleksiv kundalik, video-tahlil, o'z-o'zini baholash va tahliliy suhbat.	Bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'sishi jadallashadi.
Raqamli vositalar	Video-tahlil, elektron monitoring, harakat texnikasini vizual ko'rish va natijani qayd etish.	Mobil ilova, video yozuv, elektron jadval, onlayn test va raqamli portfel.	Baholash obyektivligi va metodik xatolarni aniqlash imkoniyati kengayadi.

Jadvaldan ko'rinadiki, kasbiy-pedagogik kompetensiyani takomillashtirish bitta metod yoki alohida mashg'ulot bilan cheklanmaydi. U metodik, amaliy, kommunikativ, refleksiv va texnologik komponentlarning o'zaro integratsiyasi orqali shakllanadi. Ayniqsa, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi uchun darsni rejalashtirish va uni real sharoitda boshqarish o'rtasidagi uzviylik hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Kasbiy-pedagogik kompetensiyani rivojlantirishda pedagogik amaliyot muhim o'rin tutadi. Amaliyot jarayonida talaba o'quvchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi, darsdagi faolligi, intizomi va psixologik holatini bevosita kuzatadi. Bu jarayonda nazariy bilim real pedagogik vaziyat bilan bog'lanadi. Talaba darsni o'tkazish jarayonida mashqni ko'rsatish, tushuntirish, xavfsizlikni ta'minlash, xatolarni tuzatish va dars yakunida o'quvchilar faoliyatini baholash kabi murakkab vazifalarni bajaradi.

Jismoniy tarbiya darslarida xavfsizlikni ta'minlash kasbiy kompetensiyaning muhim mezoni hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchi sport jihozlarning holatini tekshirishi, mashqlarni yosh va tayyorgarlik darajasiga mos tanlashi, ortiqcha jismoniy yuklamaning oldini olishi, jarohatlanish xavfini kamaytirishi va zarur hollarda birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi kerak. Xavfsizlik madaniyati dars samaradorligining ajralmas sharti sifatida qaralishi lozim ^[9; 10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish uchun bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlar muhim ekani aniqlandi.

Birinchi yo'nalish darsni loyihalash kompetensiyasi bilan bog'liq. Bo'lajak o'qituvchi darsning maqsadi, vazifasi, mazmuni, vositalari, metodlari, yuklama hajmi va baholash mezonlarini oldindan asosli belgilay olishi zarur. Dars loyihasi qanchalik aniq bo'lsa, mashg'ulot jarayoni shunchalik tartibli va natijador kechadi.

Ikkinchi yo'nalish harakat faoliyatini o'rgatish metodikasidir. Jismoniy tarbiya darsida o'quvchi mashq texnikasini ko'rish, eshitish, sinab ko'rish, xatosini anglash va takroriy bajarish orqali o'zlashtiradi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchi ko'rsatish va tushuntirish nisbatini to'g'ri tanlashi, murakkab harakatni qismlarga ajratishi, mashqlarni soddadan murakkabga tamoyili asosida tashkil etishi kerak. Ayniqsa, gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari va harakatli o'yinlar jarayonida metodik aniqlik dars sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Uchinchi yo'nalish kommunikativ boshqaruv bilan bog'liq. Jismoniy tarbiya darsida o'qituvchining nutqi qisqa, aniq va harakatga undovchi bo'lishi lozim. O'quvchilar bilan muloqotda ortiqcha izohlar, noaniq buyruqlar yoki bir-biriga zid ko'rsatmalar dars zichligini pasaytiradi. Aksincha, aniq signal, ixcham tushuntirish, ijobiy rag'bat va o'z vaqtida berilgan metodik ko'rsatma o'quvchilarning faolligini oshiradi.

To'rtinchi yo'nalish individual va differensial yondashuvdir. Bir sinfda jismoniy tayyorgarligi, sog'liq holati, psixologik faolligi va sport tajribasi turlicha bo'lgan o'quvchilar tahsil oladi. Shuning uchun barcha o'quvchilarga bir xil yuklama berish har doim ham pedagogik jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Bo'lajak o'qituvchi mashqlarni yengillashtirish, murakkablashtirish, guruhlarga ajratish, alternativ topshiriqlar berish va individual o'sishni baholash texnologiyalarini egallashi kerak.

Beshinchi yo'nalish baholash madaniyatidir. Jismoniy tarbiya darsida baholash faqat normativ ko'rsatkichlarni bajarish bilan chegaralanmasligi lozim. O'quvchining harakat texnikasi, shaxsiy o'sishi, intilishi, ishtiroki, jamoaviy faoliyati va sog'lom turmush tarziga munosabati ham hisobga olinishi zarur. Bunday baholash o'quvchini jazolash yoki taqqoslash vositasi emas, balki uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizm sifatida ishlatiladi.

Oltinchi yo'nalish refleksiv tahlildir. Bo'lajak o'qituvchi har bir amaliy mashg'ulotdan so'ng "dars maqsadiga erishildimi?", "qaysi metod samarali bo'ldi?", "o'quvchilarda qanday qiyinchilik kuzatildi?", "keyingi darsda nimani o'zgartirish kerak?" kabi savollarga javob izlash orqali kasbiy o'sishga erishadi. Refleksiya talabani tayyor ko'rsatmalar ijrochisidan pedagogik qaror qabul qila oladigan mutaxassisga aylantiradi.

Yettinchi yo'nalish raqamli va interfaol vositalardan foydalanishdir. Video-tahlil, elektron baholash varaqalari, harakat texnikasini sekinlashtirilgan tasvirda ko'rish, dars fragmentlarini yozib olib tahlil qilish bo'lajak o'qituvchining metodik xatolarini tezroq anglashiga yordam beradi. Bunday yondashuv nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni kamaytiradi hamda talabaning kasbiy o'zini baholashini aniqroq qiladi [11; 12].

Muhokama nuqtayi nazaridan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishda eng katta xatolardan biri nazariy va amaliy tayyorgarlikni alohida jarayon sifatida ko'rishdir. Agar talaba nazariy bilimlarni o'zlashtirsa-yu, ularni dars jarayonida qo'llash, o'quvchi faoliyatini boshqarish, baholash yoki refleksiya qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, kompetensiya to'liq shakllanmaydi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida seminar, amaliy mashg'ulot, mikroo'qitish, pedagogik amaliyot va metodik tahlil yagona kasbiy tayyorgarlik tizimi sifatida tashkil etilishi zarur.

Shundan kelib chiqib, jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin: diagnostik bosqichda talabaning nazariy bilimi, metodik tayyorgarligi va amaliy ko'nikmalari aniqlanadi; loyihalash bosqichida dars maqsadi, mazmuni va mashqlar ketma-ketligi ishlab chiqiladi; amaliy bajarish bosqichida dars fragmentlari va mikroo'qitish tashkil etiladi; tahlil bosqichida talaba, guruhdoshlar va o'qituvchi tomonidan natijalar baholanadi; korreksion bosqichda keyingi mashg'ulotlar uchun metodik tavsiyalar belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy-pedagogik tahlil jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etishini ko'rsatdi. Mazkur kompetensiya nazariy bilim, metodik tayyorgarlik, amaliy harakat malakasi, pedagogik muloqot, xavfsizlik madaniyati, baholash ko'nikmasi va refleksiv tahlilning uzviy birligi asosida shakllanadi.

Maqolada kasbiy-pedagogik kompetensiyani rivojlantirishning asosiy mexanizmlari sifatida metodik tayyorgarlikni kuchaytirish, amaliy-pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, individual yondashuvni qo'llash, refleksiv tahlilni yo'lga qo'yish va raqamli vositalardan foydalanish asoslandi. Bu mexanizmlar bo'lajak o'qituvchining darsni loyihalash, o'quvchilar faoliyatini boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash, baholash va o'z faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini tayyorlashda dars jarayoniga yaqinlashtirilgan amaliy mashg'ulotlar, mikroo'qitish, video-tahlil, o'zaro baholash va refleksiv hisobotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv talabada nafaqat metodik bilimlarni, balki real pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, o'quvchilar bilan ishlash va dars natijasini baholash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini baholash mezonlarini ishlab chiqish, pedagogik amaliyot jarayonida video-tahlil texnologiyalarining samaradorligini o'rganish hamda individual yondashuvga asoslangan metodik modellarni tajriba-sinovdan o'tkazish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2026.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2006.
4. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik kompetentlik va innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2017.
6. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent: Zar qalam, 2004.
7. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры. - Москва: Физкультура и спорт, 2008.
8. Холодов Ж. К., Кузнецов В. С. Теория и методика физического воспитания и спорта. - Москва: Академия, 2014.
9. Ашмарин Б. А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. - Москва: Физкультура и спорт, 1978.
10. Сластенин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика. - Москва: Академия, 2013.
11. Зеер Э. Ф. Психология профессионального образования. - Москва: Академия, 2013.
12. UNESCO. Quality Physical Education Guidelines for Policy-Makers. Paris: UNESCO, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.